

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHIRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA
G'ayrat SHOUMAROV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Komola FARFIYEVA
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA
Sharibboy ERGASHEV
Feruz QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda sahifalovchi
va dizayn
Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriq qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI – 1019

MUNDARIJA

R.MUSURMONOV.

Dars jarayoniga salbiy munosabatdagi o'quvchi shaxsini o'rganishning psixodiagnostik vositalari va unga qo'yiladigan psixologik talablar..... 2

G.S.YUNUSOVA.

To'liq oilalar onalari va farzandlarining oilaviy munosabatlari diagnostikasi 4

D.M.NURALIYEVA.

Oilada stress va salbiy emotsiyalarni boshqarish 7

F.F.RASULOVA.

Jismoniy tajovuz oqibatida psixologik jarohat olgan bolalarga konsultativ ishni tashkil etish..... 10

E.E.MURODOV.

Ta'lim jarayonida hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi 12

M.M.ABDUVALIYEVA.

Ta'lim bosqichlari integratsiyasini ta'minlashning samarali usullarini tashkil etishning jahon tajribasi 14

M.R.AKRAMOV.

Ta'lim jarayonida ekologik ong rivojlanishining pedagogik-psixologik asoslari 16

M.MIRQOSIMOVA.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichi o'qituvchilarining "Tarbiya" fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish..... 19

SH. ABDUQAHHAROVA.

Eshitishda nuqsoni bor o'smir o'quvchilarda emotsional-frustratsion xususiyatlar namoyon bo'lishining psixologik determinantlari 21

A.S.NAZAROV.

Qaror qabul qilish rahbarning muhim boshqaruv kompetensiyasi sifatida 23

B.JO'RAYEV.

O'spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlar rivojlanishining psixologik omillari 25

H.B.ZAIROVA.

Виды и причины нарушения звукопроизношения у младших школьников в общеобразовательных школах 28

C.PAXIMOVA.

Социально-психологическая адаптация детей из институциональных учреждений в семейные детские дома 30

A.B.MAMATOVA.

Imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limining nazariy asoslari 33

S.YU.SHAMSIYEVA.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qish motivlarini shakllantirish yo'llari 35

SH.X.TURDIALIEVA.

Развитие начальных навыков чтения у детей с тяжелыми нарушениями речи в дошкольном возрасте 36

Z.A. ABDURAHMONOVA.

Sog'lom tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy – psixologik ahamiyati 38

X.SH. OCHILOVA.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta'limini joriy etish usullari 40

S.G'.NORQOBILOVA.

Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromida emotsional intellekt 43

D.R.BABAYEVA, G.O.NAJMIDDINOVA.

STEAM ta'lim texnologiyasini tatbiq etishda elektron ta'lim resurlaridan foydalanish 44

J.G.EVSTAFYEVA.

Применение STEAM- технологий в развитии детей старшего дошкольного возраста 46

M.TAXIROVA.

Профессиональная подготовка студентов направления логопедия в условиях инклюзивного образования 47

DARS JARAYONIGA SALBIY MUNOSABATDAGI O'QUVCHI SHAXSINI O'RGANISHNING PSIXODIAGNOSTIK VOSITALARI VA UNGA QO'YILADIGAN PSIXOLOGIK TALABLAR

R.Musurmonov, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, «Maktab menejmenti» kafedrası dotsenti, p.f.n.

В статье рассматриваются психодиагностические средства изучения личности ученика и психологические требования к ней, даются рекомендации.

Ключевые слова и понятия: модернизированное образование, исследование личности, психодиагностический инструмент, психологические потребности, психолого-педагогическая диагностика.

The article discusses psychodiagnostic means of studying the student's personality and psychological requirements for it, and gives recommendations.

Key words and concepts: modernized education, personality research, psychodiagnostic tool, psychological needs, psychological and pedagogical diagnostics.

Ma'lumki, pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi va shu kabi muammolarni o'quvchiga individual yondashish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Psixologik-pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir etish omillarini o'rganadi. Uning maqsadi – ta'lim va tarbiya jarayonida shakllantirilayotgan o'quvchi yoki talabaning individual sifatlarini rivojlantirish yoki shakllantirish lozim bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi (boshlang'ich) darajasi va ularning o'quv jarayonidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganishdir.

Hozirgi zamon psixologiyasida inson omili, shaxsni o'rganishning juda ko'plab vositalari mavjud va ular psixologik amaliyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shunday vositalardan biri psixodiagnostik testlardir. Ular deyarli hamma sohada, ko'plab fanlar namoyandalari tomonidan ishlatiladi. Jumladan, maqsadi bevosita shaxsni tarbiyalash va shakllantirish muammolarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan pedagogika va psixologiyada hozirgi vaqtda testlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Pedagogikada qo'llaniladigan testlar didaktik testlar hisoblanadi. Mana bir necha yildirki, respublikamiz ta'lim tizimida ushbu testlar keng qo'llanib kelinmoqda.

Didaktik testlar o'z mohiyatiga ko'ra, sinaluvchilarning ayni vaqtidagi (sinalayotgan vaqtdagi) bilim darajasi, u yoki bu predmet, material, dasturning qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashga xizmat qiladi. Lekin ular sinaluvchilarning individual-psixologik xususiyatlari (qobiliyati, iqtidori, irodaviy-hissiy jihatlari)ni aniqlashga mo'ljallanmagan. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun **psixodiagnostik testlardan** foydalanish zarur bo'ladi. Didaktik testlar va psixodiagnostik testlarning bir-biridan farqi shundaki, ularda bir-biriga o'xshagan, sinaluvchi e'tiboriga havola etiladigan savollar va ularga beriladigan javoblar variantlari berilgan bo'lsada, didaktik testlarda savollar ma'lum bir fan va uning dasturi bo'yicha o'zlashtirilishi (sinaluvchining bilishi) lozim bo'lgan masalalar haqida to'g'ridan-to'g'ri beriladi va bu savollar bo'yicha taklif etilgan javob variantlari «to'g'ri» va «noto'g'ri» javoblarga

farqlanadi. Sinaluvchi qanchalik ko'p to'g'ri javob bersa, shunchalik yaxshi, yuqori natijalarga erishadi.

Psixodiagnostik (shaxsni va uning u yoki bu masalaga nisbatan munosabatini o'rganuvchi) testlarda esa ulardan farqli ravishda, sinaluvchi e'tiboriga havola etiladigan savollar chalg'itib beriladi (aksariyat hollarda sinaluvchi gap nima haqida ketayotganligini anglay olmaydi, chunki savollarning aksariyati go'yo bir-biriga mantiqan bog'lanmagandek berilishi mumkin). Bu savol, tasdiq, mulohazalarga beriladigan javoblar «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» javoblarga emas, balki «samimiy» yoki «nosamimiy» javoblarga farqlanadi (intellektni o'rganuvchi testlar bundan mustasno) [1].

Bu o'rinda sinaluvchi qanchalik samimiy javob bersa, shunchalik u haqda, uning u yoki bu hodisaga nisbatan munosabati haqida aniqroq ma'lumotni olish imkoniyati tug'iladi. Shuning uchun ham psixodiagnostik testlarda sinaluvchi javoblarining samimiy bo'lishligiga erishish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda psixologik amaliyotda foydalanilayotgan psixodiagnostik testlarni shartli ravishda ixcham va ixtisoslashtirilgan chuqur ilmiy tadqiqot psixodiagnostik testlariga farqlash mumkin. Ixcham testlar o'z nomiga yarasha ixcham, kam hajmli, kam savollardan iborat bo'lib, sinaluvchi shaxsi haqida birlamchi ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Ulardan har bir pedagog o'z faoliyatida o'zini, o'quvchisini va eng muhimi uning ota-onasini o'rganishda foydalanishi mumkin. Ixcham testlarning afzalligi shundaki, ulardan foydalanish uchun tadqiqotchidan maxsus psixologik tayyorgarlik talab qilinmasligi bilan birga undan olingan natijalarni qayta ishlab, tegishli ma'lumotlarni olish tadqiqotchi va sinaluvchidan ko'p vaqt talab qilmaydi. Ularni dam olish vaqtlarida, shunchaki suhbat chog'larida ham o'tkazib ko'rish mumkin. Odatda psixologik amaliyotda bunday testlardan sinaluvchilarni asosiy psixodiagnostik tadqiqotga tayyorlash, ularning e'tiborini qozonish, psixolog-pedagogga sinaluvchilarning ishonchini uyg'otish, qiziqishini yuzaga keltirish maqsadida, mashq sifatida foydalaniladi.

Ixtisoslashtirilgan chuqur ilmiy tadqiqot testlari esa maxsus, jiddiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda va maxsus psixologik tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar tomonidan foydalaniladigan testlardir. Bunday testlar toifasiga Kettelning



16 omilli shaxsni o'rganish testlari, G.Yu.Ayzenkning intellektual testlari, D.Veksler testlari, MMPI, FPI, Raven testi, «Tematik appersepsiya» testi (TAT), Lyusher testi, Liri testi, Rorshaxning «Siyoh dog'lari» testi va shu kabi ko'plab testlar kiradi. Bunday testlardan respublikamizda ko'plab psixolog tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida samarali foydalanib kelishgan.

Xususan, professorlar B.R.Qodirov, R.I.Sunnatova, N.S.Safayev, Z.T.Nishonova, dotsentlar K.B.Qodirov, A.Rasulov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar ushbu testlardan o'z tadqiqotlarida keng foydalanishgan. Bunday testlarning savollari, topshiriqlari miqdorining ko'pligi (ularayrim hollarda bir necha yuzlab bo'lishi mumkin), tadqiqot o'tkazish uchun qo'yiladigan talablarning o'ziga xosligi, olingan natijalarni qayta ishlash jarayonlarining murakkabligi, tadqiqot o'tkazish va qayta ishlash uchun ko'p vaqt, maxsus malaka talab qilinishi kabi xususiyatlari bilan farqlanadi. Ularning afzallik jihati shundaki, ular sinaluvchi shaxsi, uning individual-psixologik xususiyatlari haqida to'laroq ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Bunday testlardan foydalanish jarayoniga qo'yiladigan talablarga javob bermaslik, ulardan foydalanish tartibini buzish, olingan natijalarning noto'g'riligi, sinaluvchi shaxsiga noo'rin psixologik tavsif berish, oqibatda sinaluvchi shaxsi va uning taqdiriga jiddiy ziyon yetkazishga olib kelishi mumkin. Bunday testlardan noo'rin foydalanish xalq tili bilan aytganda «Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish» bilan barobar. Eng ayanchlisi, bunday psixologik savodsizlik oqibatida psixologiya fani imkoniyatlari barbod etiladi, uning obro'siga putur yetkaziladi. Bunday xatolarga yo'l qo'yish, o'quvchi shaxsi, uning ota-onasi, ularning o'zaro munosabatlari, jamiyatga jiddiy zarar keltirishi mumkin. Shuning uchun ham bunday testlarga nisbatan ehtiyotkorlik, mas'uliyat bilan yondashish lozim bo'ladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirishda psixodiagnostik faoliyatga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda u bilan shug'ullanadigan psixodiagnostik mutaxassis shaxsiga ham alohida malaka talablari qo'yiladi. Ular yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega bo'lish; psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash qoidalarini mukammal bilish; tegishli metodikalardan amalda foydalanish yuzasidan yetarlicha tajribaga ega bo'lish kabilardir. Ma'lumki, har qanday psixodiagnostik metodika o'z-o'zidan yuzaga kelavermaydi. Ular o'zi o'rganilayotgan obyektga oid qandaydir bir nazariya zaminida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Masalan, intellekt testlari intellekt tabiati, tuzilishi, ahamiyati va hayotiy namoyon bo'lishi haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari esa shaxsni ilmiy ta'rifi shaxs tuzilishini tushunish, shu shaxs haqida obyektiv mulohaza yuritish mumkin bo'lgan ma'lum bir shaxs nazariyalariga asoslanadi. Har bir psixodiagnostik metodika ayni vaqtda o'zi bog'liq bo'lgan u yoki bu nazariya bilan boyitilgan va chegaralangan bo'ladi. Tegishli nazariyani bilgan holda, shu nazariya doirasida o'rganilayotgan odam haqida, ko'pincha bevosita psixodiagnostika natijalari doirasidan (chegarasidan) kengroq, uzoqni ko'zlagan xulosalar qilishga erishish mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har qanday psixodiagnostik metodikalardan psixodiagnostik amaliyotda foydalanishda mazkur metodika asoslanadigan nazariyani bilish shart. Bularsiz mutaxassis odamlarni

tatqiq etish natijalarini tahlil qilish, izohlash va xulosalar chiqarishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Metodikani mukammal o'zlashtirganlik uni sinaluvchi e'tiboriga havola etish, natijalarni tahlil qilish va izohlash tartib-qoidalariga (protseduralariga) oid bilim va malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Tadqiqotchi toki psixodiagnostik testni yaxshi o'zlashtirib olmaguncha yoki hech bo'lmasa o'zi qo'llamoqchi bo'lgan testni o'zida yoki o'zi yaxshi bilgan odamlarda o'tkazib ko'rmaguncha, undan boshqalarni o'rganishda foydalanmasligi kerak. Psixodiagnostik metodikalarni qo'llash tartib, talablari, qoidalarini ham bilish juda muhimdir. Bu tartiblarga amal qilish ishonchli natijalarni olish imkoniyatini bersa, ularni buzish jiddiy xatolarga olib keladi. Testning o'zi o'z holicha qanchalik yaxshi bo'lishiga qaramay, undan foydalanish vaqtida albatta sinaluvchilarning individual xususiyatlari, ularning mazkur vaziyatdagi holati va psixodiagnostikaga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarni hisobga olish lozim. Bunda psixologik tadqiqotlar olib borishning asosiy tamoyillari bo'lmish determinizm va tizimli yondashish tamoyillariga amal qilish lozim. Shuningdek, tegishli psixodiagnostika metodikasini amalda qo'llay bilish tajribasiga ega bo'lish ham psixodiagnostik faoliyatda katta ahamiyatga ega. Bunday psixodiagnostik metodikalardan foydalanish tajribasi ham uzluksiz bo'lishi kerak, chunki ulardan foydalanishdagi tanaffusning uzoq vaqt cho'zilishi odatda tegishli bilim, ko'nikma va malakalarning yo'qolishiga va ular bilan ishlash sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish vaqtida quyidagi axloqiy-etik me'yorlarga amal qilishi lozim, deb o'ylaymiz:

1. Odamni uning ixtiyoriy roziligisiz psixologik tadqiqotga jalb qilmaslik kerak (qonunda belgilangan alohida sud yoki tibbiyot amaliyoti holatlari bundan mustasno).

2. Psixodiagnostik sinash o'tkazishdan oldin sinaluvchini, u tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan (sezmagani, bilmagan) holda o'zi, o'z fikr-o'ylari, hissiyoti haqida ayrim ma'lumotlarni berib yuborishi mumkinligi haqida ogohlantirib qo'yish lozim.

3. Agar bu qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, har qanday odam (sinaluvchi) testlashtirish natijalari va undan olingan ma'lumotlarni va ulardan kim, qayerda va nima maqsadda foydalanishi mumkinligini bilishga haqli.

4. Psixologik sinash natijalari testni o'tkazgan odam tomonidan sinaluvchiga to'g'ri tushuniladigan shaklda berilishi kerak.

5. Voyaga yetmagan sinaluvchilarni o'rganishda ularning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolani o'rganish natijalarini bilishga haqli.

6. Agar test odamning psixik rivojlanganlik darajasini aniqlash, tanlov asosida tanlab olish yoki ishga qabul qilish maqsadida o'tkazilayotgan bo'lsa, bunda ham sinaluvchi nafaqat testlashtirish maqsadi, balki u haqida test natijalariga ko'ra qanday asosda xulosa qilinishini ham bilishga haqli.

7. Psixodiagnostik testlardan amalda foydalanish uchun asosiy javobgarlik ularni qo'llayotgan psixologlar, shaxslar va tashkilotlarga yuklatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, shaxsni o'rganishda psixodiagnostik vositalardan foydalanishda ularga qo'yiladigan talablarga rioya qilish

- psixodiagnostik faoliyat samaradorligi, ishonchligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri.

Tadqiqotimiz obyektini sifatida tanlangan maktab o'quvchilarining dars jarayoniga bo'lgan salbiy munosabatlarini o'rganish davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, amaliyotchi maktab psixologlari o'quvchilar bilan psixodiagnostik testlarni deyarli o'tkazmaganlar. O'quvchilarning darsga bo'lgan salbiy munosabatlari sabab-oqibatlar bilan qiziqmaganlar. Har bir sinfdagi o'quvchilar orasidan yomon o'zlashtiruvchi, intizomsiz o'quvchilarni aniqlab, ular bilan maxsus reja asosida shug'ullanish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashga ahamiyat qaratilmagan. Maktab rahbarlari esa bunday muhim vazifani bajarilishini nazoratga olmagan. Natijada o'quv-tarbiya jarayoniga salbiy munosabatdagi o'quvchilar yillar davomida yomon natija ko'rsatib, o'qituvchilarni asabiylashtirib kelishgan. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida Qarshi shahridagi 2, 3, 5, 7, 29- umumta'lim maktablari rahbarlari,

amaliyotchi psixologlari, viloyat pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi tinglovchilari ishtirokida seminar o'tkazilib, tavsiyalar berildi. 7 va 29-maktablarda o'quvchilar bilan psixodiagnostik testlar o'tkazilib, tahlil etilib, o'quvchilar va ularning ota-onalariga maslahat va tavsiyalar berildi.

Adabiyotlar

1. Adizov T.M. Bolalarning shaxslararo munosabatlari psixologik diagnostika va korreksion ishlar. T. – 1995.
2. Абрамова Г.С. Практическая психология. Москва, «Академический проспект», 2001.
3. Rasulov A.I. Psixodiagnostika. Toshkent, “Mumtoz so'z” - 2010, 169 b.
4. Musurmonov R., Musurmonova M. O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini klaster asosida o'rganish. O'quv-metodik qo'llanma. T: “ZEBO PRINT” MCHJ, 145 b.

TO'LIQ OILALAR ONALARI VA FARZANDLARINING OILAVIY MUNOSABATLARI DIAGNOSTIKASI

G.S.Yunusova, Farg'ona davlat universiteti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

В данной статье приведены результаты, полученные по организации гибкости и организации семейных отношений полно-семейных матерей и их детей-подростков в условиях Узбекистана, а также написаны выводы о влиянии взаимоотношений на психологию и социализацию детей.

Ключевые слова и понятия: семья, подростки, дети, матери, девочки, мальчики, отношения, полная семья, организованность, гибкость, перспектива, воображение, социальное развитие.

In this article, the results obtained from the organization of the flexibility and organization of family relations of mothers and their teenage children in the conditions of Uzbekistan are given, and conclusions are written about the influence of relations on the psychology and socialization of children.

Key words and concepts: family, teenagers, children, mothers, girls, boys, relationships, complete family, organization, flexibility, perspective, imagination, social development.

Oila psixologiyasining o'ziga xos qator metodik uslublari mavjud bo'lib, ular yordamida oilaviy o'zaro munosabatlarning turli qirralari o'rganiladi. O'z tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda avvalo ona va bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi tutgan maqomlari va o'zaro munosabatlari o'rganildi.

Oilaviy o'zaro munosabatlarni D. Olson, D. Portner va I. Lavilar tomonidan 1985 yilda ishlab chiqilgan, rus tiliga 2002 yilda tarjima qilinib, 2003 yilda E. Eydemiller, I. Dobryakov, I. Nikolskayalar tomonidan tarjima qilinib, Internet tarmog'iga uzatilgan **“Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish”** deb nomlangan metodikaning variantidan foydalanildi.

Ushbu metodika 3 xil variantda ishlatiladi: 1) farzand ko'rmagan er-xotinlar uchun; 2) farzandi bor er-xotinlar uchun va 3) o'smir yoshli farzandi borlar uchun. Oxirgi holat bizga ma'qul keldi, chunki kichik yoshli bolasi bor er-xotinlar bilan o'smir yoshli farzandi borlar o'zaro munosabatida katta farq bo'ladi. Biz ushbu metodikani o'zbek tiliga tarjima qilib, tanlab olingan to'liq oila vakillariga hamda ularning o'smirlik yoshidagi farzandlari bilan o'tkazildi.

“Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganlikni diagnostika qilish” (yoki qisqacha nomi **FACES III**) metodikasining onalarga berilgan variantida onalarga quyidagicha yo'riqnoma berildi: “Marhamat qilib, quyida Sizga havola etilayotgan fikrlarga qanchalik qo'shilishingizni taqdim qilinayotgan shkala vositasida baholasangiz”. So'ngra avval anketaning “pasport” qismini, undan keyin testda berilgan 20 turli fikr-mulohazalarga 5 shkalali javoblar variantidan (deyarli hech qachon; kamdankam; ba'zan; tez-tez; deyarli doimo) o'ziga ma'qul kelganini belgilash so'raldi:

Metodikaning mohiyatiga ko'ra tadqiqot mantig'idan kelib chiqib, o'smir yoshli to'liq oila farzandlariga quyidagi anketani to'ldirish uchun berildi. “Marhamat, mulohazalarni diqqat bilan o'qib chiqib, o'zingiz orzu qilayotgan yaxshi oila to'g'risidagi fikrlaringizni belgilab bering”, deb unda keltirilgan 20 ta fikr-mulohazani yuqoridagidek, besh shkalali jadvalda o'ziga mosini belgilash topshirig'i berildi. Har bir respondent ona va uning farzandi taklif etilgan test topshirig'ini bajargach, quyida berilgan kalit asosida qayta ishlandi, ma'lumotlar banki yaratildi.